# QIZILQUM SAHROSINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, AHOLI JOYLASHUVI VA TRANSFARMATSION JARAYONLAR

**Jalilov Mirsaid Bektosh o‘g‘li**

**Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi t.f.f.d (PhD)**

**Anotatsiya**; Qizilqum O‘zbekistonning yirik hududlaridan biridir. Qizilqum cho‘li Turon tekisligining katta qismini egallab, Sirdaryo va Amudaryoning oralig‘ida joylashgan. U janubdan janubiy-sharqqa qarab Zarafshon vodiysi hamda Nurota tog‘ tizmalari bilan, janubiy-g‘arbda Amudaryo vohasi bilan, shimoliy-g‘arbda Orol dengizi va shimol hamda shimoliy-sharqda Sirdaryo vohasi bilan chegaradoshdir. Ushbu hududlardagi cho‘lning umumiy maydoni 300 ming km ga teng bo‘lib, sharq va g‘arbda Markaziy Osiyoning ulkan daryolari Sirdaryo va Amudaryo bilan chegaradosh. U o‘zining geografik joylashuvi va ta’sir jihatdan o‘zgacha xususiyatga ega bo‘lib, shu tufayli o‘ziga qo‘shni bo‘lgan hududlarning ob-havosiga, iqlimiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu hudud janubiy-sharqdan shimoliy-g‘arbga qarab pasayib boradi. Uning o‘rtacha balandligi 200-300 m bo‘lsa, janubiy-sharqda 350-400 m, shimoliy-g‘arbda esa 90-100 metrgacha pasayadi. Qizilqumning g‘arbida Orol dengizi va uning janubidagi Quvondaryo, Yangidaryoga qadar cho‘zilgan.

**Kalit so`zlar:** Qizilqum, bo`kantov, tomditov, nurota tog` tizmalari, sharqiy qozog`iston, janubiy turkiston, teylibay, gobi, taklamakon

## KIRISH

Qizilqumning sharqi Navoiy, Buxoro viloyatlari orqali chegaralanib, Amudaryo yoqasiga qadar yetib borgan. Osiyodagi Qoraqum, Gobi-Taklamakan kabi cho‘llarga qaraganda Qizilqumning tabiati alohida xususiyatga ega. Qizilqum hududida bir necha ming yillar davomida o‘ziga xos konchilik ishlari rivojlanib, eramizdan avvalgi davrlardayoq buyoq uchun oxra, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar, feruza, sopol idishlar uchun tuproq (glina) qazib olingan.

Akademik Yuriy Buryakovning ma’lumot berishicha, Qizilqumdan 20 dan ortiq foydali qazilmalar - osh tuzi, kvars, yashma toshi, mis, oltin kabi muhim qazilma boyliklari qazib olingan.[1] Qadimda Lavlakon, Mullalidagi konlardan osh tuzi, Temirchidan (Konimexdan 30 km) feruza 16 ta voronkasimon konlardan qazib olingan.[2] Qizilqum sanoati tarixiga

nazar solsak, aynan Navoiy viloyatida konchilik ishlari qadimdan vujudga kelgan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Navoiy viloyati Uchtut qishlog‘i yaqinida noyob chaqmoqtosh konlari topib o‘rganilgan. Uni akademik Y.G‘ulomov rahbarligidagi ekspeditsiya 1958-yilda topgan edi. Keyinchalik uning shogirdlari M.Qosimov, T.Mirsoatov, U.Islomovlar atroflicha o‘rganishib, o‘tmish tarixga doir muhim ilmiy ma’lumotlar to‘pladilar va tegishli xulosalar yaratildi.[3] Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida kondan odamlar ilk paleolit davridan boshlab, butun tosh davri davomida uzluksiz foydalanishganligi ma’lum bo‘ldi. Qizilqumning yana asosiy xususiyatlaridan biri yer osti suvlari mavjud bo‘lib, 10 metrdan 80 metrgacha masofa qazilsa, suv chiqarish mumkin. Shuningdek mintaqa hududidan Amu-Buxoro kanali Qizilqumning janubi-g‘arbiy qismi Zarafshon vohasi chekka hududlari orqali cho‘l landshaftini kesib o‘tgan sun’iy gidrotexnik inshoot hisoblanadi.[4] Qizilqumning fauna va florasi turli tumandir. XX asrning 40-yillarida Qizilqum tabiatini tadqiq qilgan zoolog Lemani hududda o‘simlik dunyosi boyligini yozib qoldirgan. Mo‘l-ko‘l o‘simliklardan iborat bo‘lgan yaylovlarda Samarqand, Buxoro, Karmana, Konimex, Tomdi, Uchquduq, Qizilo‘rda, Chimkent va Qoraqalpog‘istonning yuz minglab chorvasi boqilgan.[5]

Qizilqumning uzunligi taxminan 2,5 ming kilometrdan 3 ming kilometrgacha cho‘ziladi. Eni 300 kilometrga qadar cho‘zilib, uning oralari tog‘ yon bag‘irlari bilan ajralib turadi, ya’ni, sahro Yomonqizil va Kattaqizilga bo‘linadi. Ular o‘rtasidagi chegara tog‘lar va ularning etagidagi tekislik yerlari bilan ajratiladi. Sahro aholisi tomonidan ikkala Qizilqum umumiy holda “Taueliboy” (Tayelibay) eli deb nomlangan[6].

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, Qizilqum cho‘li tekis relefga ega bo‘lib, janubiy-sharqdan shimoliy-g‘arbga qarab pasaygan va bu pasayish hammasi bo‘lib 300-53 m ni tashkil qiladi. Ammo, cho‘l relefi quruq va yopiq havzalar hamda bir-biridan uzoq va balandligi dengiz sathidan 888 m gacha yetadigan tog‘lardan tarkib topgan. Mintaqada yirik qumli landshaftlar orasidan kuchli buzilgan pastqam tog‘lar ko‘tarilib turadi: Tomditov (888 m), Quljuqtov (784 m), Bo‘kantov (758 m), Aristantov (698 m), Auminzatov (639 m), Jetimtov (521 m), Sulton-Uvaystov (485 m), Qozoqtov (394 m) va boshqalar. Uning landshafti ham betakrorligi, rangbarang‘ligi, turfa xususiyatlari, hududlari va obyektlari

bilan noyobdir. Masalan, qurib qolgan qadimiy ko‘llarning o‘rnida paydo bo‘lgan, bo‘yi yuz va undan ham ortiq kilometrlarga cho‘zilgan Oyoqog‘itma, Mingbuloq, Qoraqatin hamda Mullali kabilar alohida etiborga molik. Konimex, Tomdi, Uchquduq tumanlari joylashgan yerlari geografik o‘rni Turon pasttekisliklari, O‘rta Osiyoning cho‘l va cho‘llashgan yerlari kiradi.[7]

Bu Qizilqumdagi uchta tuman sharqiy Qozog‘istonning Chimkent viloyati, g‘arbda Qoraqalpog‘iston bilan, janubda Buxoro viloyati, shimolda Qozog‘istonning Qizilo‘rda viloyati bilan chegaralanadi. Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi cho‘l hududlarni tabiiy-geografik rayonlashtirish T.Zvonkova [8] tomonidan amalga oshirilgan. U Qizilqumdagi qumlarni landshaftlarga ko‘ra turlash va xaritalashtirish asosida to‘rtta tabiiy-geografik bo‘limlarga ajratgan: Ular Quyi Amudaryo, Shimoliy Qizilqum, Markaziy Qizilqum, Janubiy Qizilqumdan iborat.

Ushbu bo‘limlarning har biri alohida tabiiy-geografik rayonlarga ajraladi. Masalan, Markaziy Qizilqum bo‘limi quyidagi rayonlarga bo‘linadi: 1) past va shag‘alli cho‘l rayoni, 2) yarim cho‘l va qoyatoshli Quljuqtov va 3) qumli-gilli, shag‘alli va sho‘rxokli cho‘llar.[9]

Qizilqumning katta hududni egallagani bois uning iqlimi shimoldan janubga qarab o‘zgarib boradi. Qizilqum hududining yaylovlari ob-havosi keskin kontinentalligi bilan xarakterlanadi. O‘rtacha yillik yog‘in miqdori 105-160 millimetrni tashkil etadi va yog‘ingarchilikning asosiy qismi qish-bahor mavsumiga to‘g‘ri keladi. L.Gaevskaya, N.Salmanov ma’lumotlariga ko‘ra umumiy yog‘ingarchilik miqdorining 45-50 foizi bahor, 35-40 foizi qish, qolgan 10-20 foizi esa kuz va yoz fasllarida sodir bo‘ladi. Qizilqum o‘zining o‘ta qurg‘oq (arid) jazirama issiq xarakteri bilan ajralib turadi. Ob-havo harorati yil mavsumlariga qarab keskin o‘zgaruvchanlikka ega. Meteorologik stansiyalar ma’lumotlariga ko‘ra o‘rtacha yillik havo harorati +13 +17$^0$S ni, yoz davridagi harorat +45$^0$ +47$^0$S ni, qish davridagi mutlaq minimal harorat esa –25 –30$^0$S ni, havoning o‘rtacha nisbiy namligi 45-55 foizni, iyul oyida esa bu ko‘rsatgich 13-18 foizgacha pasayadi. Mazkur hudud iqlimining xususiyatlaridan yana biri tez-tez esib turadigan, aksariyat holatlarda esa kuchli shamollardir. Uning tezligi sekundiga 20-25 metrgacha yetadi. Bu esa tuproq va o‘simlik qoplamiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shamol aksariyat hollarda shimoldan, shimoli-

g‘arbdan va sharqdan esadi. Yoz oylarida issiq shamol “garmsel” esib, havoning nisbiy namligi keskin pasayadi.

Xulosa qilib aytganda Qizilqum sahrosini tabiiy jihatdan o‘ziga xos bo‘lib, bu hudud o‘zining fauna va florasi bilan muhim o‘rin tutadi. Hududda yer osti boyliklarining mo‘lligi aholi migratsiyasiga o‘zining ta’sirni ko‘rsatdi. Sahro bag‘rida sanoat shaharlarining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Юрий Буряков Горное дело и металлургия средневекового Илака, М; 1974 Б 158

2. Одинаева З.Қизилқум саҳросида баҳор.-Тошкент: Муҳаррир.-Б.10-13.

3. Джуракулова Д. Зарафшон водийсининг тош ва бронза даври маданияти.Т.: Фан.2011.-Б.39-40.

4. O‘zbekiston milliy arxivi R-837-fond, 7-ro`yxat, 102-yig`majild, 87-varoq.

5. Жусип Әлқожа ұлы. Таүелібай. -Кенимех, 1998 ж,-Б.5-6.

6. Жусип Әлқожа ұлы. Таүелібай. –Кенимех…-Б.6

7. W. Leal Filho Climate Change Management in Central Asia (Kyzylkum case studies) Springer Nature, Switzerland, 2020. B 429

8. Звонкова Т.В. Бухарская область.\\ Природные условия и ресурсы Юго-Западного Узбекистана. – Ташкент.: 1965. -С. 56.

9. Мирзаев А. Эволюция обстановок осадконакопления извеществленный состав морских формаций палеогена Кызылкумов. – Ташкент, автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора геолого-минералогических наук, 2012. - С.12